



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 28-avgust

439-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-avgustdagi PQ-290-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-avgustdagi 398-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sholi yetishtiruvchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-avgustdagi PQ-290-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-avgustdagi 398-6-0-Q/24-son qarorlari ijrosini ta‘minlash, tumanda sholi yetishtirish, saqlash, qayta ishlashning uzluksiz va samarali tizimini joriy etish, ichki iste‘mol bozorini guruch mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlash, shuningdek, sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni ko‘paytirish va oziq-ovqat narxlarini barqarorligini ta‘minlash, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sholi yetishtiruvchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-avgustdagi PQ-290-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-avgustdagi 398-6-0-Q/24-son qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

O‘rnatilgan tartibga muvofiq:

2024-yil 1-sentabrdan boshlab fermer, dehqon xo‘jaliklari va boshqa mahsulot yetishtiruvchilarga sholi yetishtirish va xarid qilish xarajatlarini moliyalashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-dekabrda “Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-52-son qarorida belgilangan shartlarda imtiyozli kreditlar ajratilishi;

bunda sholi xarid qilish bo‘yicha shartnomalar sholichilik klasterlari bilan fermer xo‘jaliklari o‘rtasida Qishloq xo‘jaligi vazirligining “Agroplatforma” axborot tizimi orqali tuzilishi;

2025-2026-yillarda qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan sholi ekish uchun xarid qilingan va ishlab chiqarilganiga bir yildan oshmagan yangi urug‘ seyalkalari hamda ko‘chatlab ekish uskunalari qiymatining 20 foizi Davlat budjetidan subsidiyalar ajratish orqali qoplab berilishi;

belgilanishicha, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-avgustdagi PQ-290-son qarorini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar:

2024-yilda O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni bilan Qishloq xo‘jaligi vazirligiga ajratilgan mablag‘lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirilishi;

2025-yildan boshlab budjet qonunchiligida belgilangan tartibda Davlat byudjeti parametrlarida nazarda tutilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tuman bo‘limi (M.Usmanov) sholi maydonlarida agrotexnik tadbirlarning o‘z vaqtida o‘tkazilishi, davlat ehtiyojlari uchun yetishtirilgan sholini qabul qilish, saqlash va qayta ishlash ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

4. Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (A.Xakimov), tuman “Suv yetkazib berish xizmati” DM (M.Ortiqov) bilan birgalikda tumanda sholi yetishtirish, ichki iste‘mol bozorini guruch mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlash, bugungi kunda tobora kuchayib borayotgan suv taqchilligi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabning kengayishini inobatga olgan holda suvni ko‘p iste‘mol qiladigan ekinlarni yetishtirishda suv tejoychi texnologiyalarni keng qo‘llash choralarini ko‘rsin.

5. Tuman hokimligi (B.Muydinov), Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (A.Xakimov), tuman “Suv yetkazib berish xizmati” DM (M.Ortiqov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Jurabayev), Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tuman bo‘limi (M.Usmanov), Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (X.Inomov) bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-avgustdagi PQ-290-son qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Muydinov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



A.Mansurov